

Termiz shahrida Sektor rahbarlari va profilaktika inspektorlari uchrashuvi o'tkazildi



Termiz shahrida Sektor rahbarlari va profilaktika inspektorlari uchrashuvi o'tkazildi

Termiz shahar hokimligida shahar hokimi Isroil Xudoyberdiyev boshchiligida, sektor rahbarlari hamda profilaktika inspektorlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda hududlardagi mavjud muammo va kamchiliklar muhokama qilindi.

Shuningdek, mahallalarda jinoyatchilikni jilovlashda "Mahalladagi beshlik" ya'ni, profilaktika inspektori, rais, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va hokim yordamchisi hamkorligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratildi.

Uchrashuv yakunida mahallalarda profilaktika inspektorlari oldida turgan muammolarning yechimi bo'yicha muloqot qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.